

ALKOGOL, GIYOHVANDLIK VOSITALARI TA'SIRIDAN YOKI O'ZGACHA TARZDA MASTLIK HOLATIDA BO'LIB, MUSTAQIL HARAKATLANISH QOBILIYATINI YO'QOTGAN SHAXSLARNI ICHKI ISHLAR XODIMLARI TOMONIDAN TIBBIY YORDAM KO'RSATISH PUNKTLARIGA YETKAZISH VA TIBBIY YORDAM KO'RSATISH TARTIBI BELGILANDI

D.Turdaliyev

Parkent tumani adliya bo'limi Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8256176>

Annotasiya: Ushbu maqolada alkogol ichimliklari va giyohvandlik vositalari ta'siridan mustaqil harakatlanish qobiliyatini yo'qotgan shaxslarni hamda o'zgacha tarzda mastlik holatida bo'lib mustaqil harakatlanish qobiliyatini yo'qotgan shaxslarni ichki ishlar xodimlari tomonidan tibbiy yordam ko'rsatuvchi punktlarida yetkazish hamda tibbiy yordam ko'rsatish tartibi belgilanganligi haqidagi qarorlar, nizomlar borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Alkogol, Giyohvandlik vositalari, nizom, mustaqil harakatlanish, tibbiy yordam.

Hozirgi davrga kelib alkogol ichimliklar iste'moli, giyohvandlik vositalarini qabul qilish butun dunyo bo'ylab keng yoyilgan holat hisoblanadi. Albatta bu jarayon O'zbekiston hududida ham mavjud. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi "Alkogol, giyohvandlik vositalari ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mastlik holatida bo'lgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 644-sonli qarori qabul qilindi hamda qarorga asosan "Alkogol, giyohvandlik vositalari ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mastlik holatida bo'lgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi.

Nizom alkogol, giyohvandlik vositalari ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mastlik holatida bo'lib, mustaqil harakatlanish qobiliyatini yo'qotgan yoki qayerdaligini aniq anglab yetmaydigan shaxslarni ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan tibbiy yordam ko'rsatish punktlariga yetkazish va ularga tibbiy yordam ko'rsatish tartibini belgilashga qaratilgan.

Mazkur Nizomning 3-bandiga asosan, mastlik holatida bo'lgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari tarkibida kamida 10 o'rinli tumanlararo tibbiy yordam ko'rsatish punktlari tashkil qilinishi belgilandi.

Shuningdek, tibbiy yordam ko'rsatish punktlarida ichki rejim hamda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish maqsadida Milliy gvardiyaning qo'riqlash bo'linmalari tashkil etilishi belgilab o'tildi.

Nizomga ko'ra, Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan tibbiy yordam ko'rsatish punktlariga jamoat joylarida mastlik holatidagi shaxslarni tibbiy yordam ko'rsatish punktlariga olib borish uchun shaxsning maqsadli harakatlar sodir etish yoki o'zi mustaqil harakatlanish qobiliyatini yo'qotganligi (biror joyda yotgan yoki o'tirgan holati), shaxsning uyquchanligi, uyg'otishning qiyinligi, shaxsning tikka holatda mustaqil tura olmasligi, nutqining noaniq, tushunarsiz, o'zaro bog'liq bo'lmagan uzuq-yuluq alohida so'zlardan tashkil topishi (g'uldirashi), savollarni yaxshi tushunmasligi, o'zining qaerdaligini aniq anglab yetmasligi kabi holatlar asos hisoblanadi.

Bunda, mastlik holatidagi shaxs tibbiy yordam ko'rsatish punktida 12 soatgacha bo'lganda dalolatnoma, 12 soatdan ko'p vaqt bo'lganda va tibbiy ko'rsatmalar mavjud bo'lgan hollarda kasallik tarixi rasmiylashtiriladi.

Tibbiy yordam ko'rsatish punktiga olib kelingan mastlik holatidagi shaxslarni sutkaning tungi vaqtida (soat 23:00 dan 06:00 gacha) yoki yilning sovuq davrida chiqarib yuborish ularning qarindoshlari kuzatuvida amalga oshiriladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi,
4. Xalq so'zi gazetasi
5. <https://lex.uz/>



INNOVATIVE
ACADEMY